

YOSHGA QARAB INGLIZ TILINI O'RGATISH METODLARI: TAHLIL VA TAVSIYALAR

Isoqova Ruxshona Bunyodovna

Samarqand davlat chet tillar instituti, Ingliz tili fakulteti

Xorijiy til va adabiyot 2326-guruh talabasi

Ilmiy rahbar: Azzamova Nigora Rajabboyevna

Annotatsiya: Ushbu maqolada asosan ingliz tilini yoshga qarab o'qitishning samarali metodikalariga ularning afzalliklari va ilmiy asoslari tahlil qilinadi

Kalit so'zlar: Harakatga asoslanga metod (Total Physical Response), hikoyalar orqali o'rgatish (Storytelling), kommunikativ o'qitish (Communicative Language Teaching), o'yinlashtirish (Gamification), mazmun va tilni integratsiyalashgan holda o'qitish (Content and Language Integrated)

Til o'rganish jarayoni juda ham muhim jarayon bo'lib asosan Ingliz tilini o'rganish samaradorligi yoshga bog'liq bo'lib hisoblanadi, har bir yosh toifasi uchun maxsus metodikalar talab etiladi. Bolalar tabiiy usulda til o'rganishga moyil bo'lsa, o'smirlar va kattalar grammatik tushunchalar va mantiqiy fikrlash orqali tilni o'zlashtiradilar. Ular orasida ulkan tafovutlar mavjud bo'lib hisoblanadi

1. Bolalar (3-7 yosh) uchun ingliz tilini o'rgatish metodikasi

Ushbu yoshdagi bolarda til o'rganish jarayoni ancha murakkab jarayon hisoblansada bolalar o'z ona tilini o'rganish jarayoniga o'xhash usulda ikkinchi tilni o'zlashtirishlari mumkin. Bundan tashqari ular asosan vizual va eshitish orqali o'rganishlari ham samaraliroq bo'ladi. Bunday yoshdagi bolalarda o'yin, qo'shiq va harakat asosidagi darslar natijadorlikni oshiradi.

Ular uchun samarali o'rganishda tavsiya etiladigan metodlar

1. Total Physical Response (TPR) – Harakatga asoslangan metod.

Ushbu metoddan asosan bolalar buyruqlarni bajarish orqali yangi so‘zlarni o‘zlashtiradilar. Bu esa tilni tabiiy va qiziqarli o‘rganish imkoniyatini yaratadi. Ushbu metod Asher tomonidan ishlab chiqilgan va samarali deb topilgan.

2. Storytelling (Hikoyalar orqali o‘rgatish)

Bu metoddan asosan rasmlı kitoblar va ertaklar yordamida bolalar yangi so‘zlarni tez eslab qoladilar hamda so‘zlarni doimiy ravishda rasmlarga solishtirib yodlashlari mumkin bo‘ladi va bu metod asosan bolalarda til sezgisini rivojlantiradi.

3. Multimedia va musiqadan foydalanish ham bolalarni o‘rganishi uchun qulay usuldir ya’ni multfilmlar, bolalar uchun qo‘schiqlar va interaktiv o‘yinlar orqali o‘rganish usulidir. Ushbu usul so‘z boyligini oshirish va talaffuzni rivojlantirishga yordam beradi.

Buni asosan Lightbown va Spada o‘z tadqiqotlarida, bolalar tilni tabiiy ravishda qabul qiladi, ammo uziq muddatli mustahkamlash uchun doimiy muloqot zarur deya etirof etishgan.

2. O’smirlar (8-16 yosh) uchun ingliz tilini o‘rgatish metodikasi

Bu yoshdagagi o‘quvchilarda mantiqiy fikrlash rivojlanana boshlaydi hamda qoidalar va grammatik tuzilmalarni tushunish qobiliyati oshadi. Lekin yangi narsalarni o‘rganishga bo‘lgan qiziqish kuchli bo‘lsa-da, darslar zerikarli bo‘lsa, motivatsiya pasayishi mumkin. Ushbu yoshdagilar uchun tavsiya etilgan metodlar.

1. Communicative Language Teaching (CLT) – Kommunikativ o‘qitish

Ushbu metoddan o‘quvchilar haqiqiy hayotiy vaziyatlarda tilni qo‘llashga o‘rganadilar hamda guruhli ishlar va rolli o‘yinlar orqali o‘zaro muloqot rivojlanadi.

2. Gamification (O‘yinlashtirish)

Ushbu metodda ingliz tilini o‘rganishni qiziqarli qilish uchun o‘yin elementlari, musobaqalar va mukofotlar ishlataladi. Bu esa o‘rganishdagi samaradorlikni yanada oshiradi.

Ushbu metod bo‘yicha Khan, Eberly & Jones tadqiqotlariga ko‘ra, bu metod o‘quvchilarning motivatsiyasini oshiradi.

3. Kattalar (17+ yosh) uchun ingliz tilini o‘rgatish metodikasi.

Kattalrda til o‘rganish anchagina osonlashadi chunki ular aniq maqsadlarga ega bo‘lishadi (ish, ta’lim, immigratsiya). Bundan tashqari ularda yodlash va mustaqil o‘rganish qobiliyati yaxshi rivojlangan bo‘ladi hamda grammatik qoidalarni tahlil qilish va o‘zlashtirishlari osonroq bo‘ladi.

Ushbu yoshdagilar uchun tavsiya etiladigan metodlar.

1. Content and Language Integrated Learning (CLIL) – Mazmun va tilni integratsiyalashgan holda o‘qitish.

Ushbu metodsa asosan ingliz tilini boshqa fanlar yoki kasbiy sohalarga bog‘liq holda o‘rganish hamda ish va akademik muhitda samarali muloqot qilishni o‘rganish muhim hisoblanadi. Ushbu metod bo‘yicha Krashen kattalar til o‘rganishda ongli tushunchalarga tayangan holda muvaffaqiyatga erishishini ta’kidlaydi.

Xulosa qilib aytganda ingliz tilini o‘qitishda yoshga mos metodlarni tanlash va ularning eng samaralilari orqali o‘rganish juda muhim. Qo‘srimcha tarzda quyidagi tavsiyalar samaradorlikni oshirishga yordam beradi:

1. Bolalar uchun – O‘yinlar, qo‘shiqlar va harakat orqali tabiiy o‘rganish.
2. O‘smlar uchun – Muloqot va vazifaga asoslangan yondashuv orqali tilga qiziqishni oshirish.
3. Kattalar uchun – Grammatikani tushunish va amaliy mashqlar orqali tizimli o‘rganish.

Har bir yoshdagi o‘rganuvchilar asosan tilning har qanday jihatlariga etibor berishlari hamda metodiklarda to‘g‘ri va uzlucksiz foydalanishlari zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Asher, J. J. (1969). The Total Physical Response Approach to Second Language Learning. *Journal of Humanistic Psychology*.
2. Harley, B. (1994). Lexical Meaning in Second Language Acquisition. Cambridge University Press.
3. Krashen, S. D. (1982). Principles and Practice in Second Language Acquisition. Pergamon.
4. Lightbown, P. M., & Spada, N. (2006). How Languages Are Learned. Oxford University Press.
5. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2001). Approaches and Methods in Language Teaching. Cambridge University Press.
6. N. R. Azzamova, THE REGULARITY OF THE COMPLECATION OF THE TEMPORAL FORMS OF THE ENGLISH VERBS